

**MUMTOZ SHARQ SHE'RIYATNING SEHRLI DUNYOSI
"XAZINALAR JILOSI" NIGOHIDA**

Ibodullayeva Farangiz Baxodir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Amaliy fanlar fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xaydarova Ra'no Anvarovna

Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

ibodullayevaaynoraxon@gmail.com

[ORCID ID: 0009-0002-6961-9584](https://orcid.org/0009-0002-6961-9584)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola XX–XXI asr o'zbek adabiyotshunosligining yirik vakili, sharqshunos va eronshunos olim, professor Shoislom Mahmudovich Shomammedovning ilmiy-ijodiy merosi va uning "Xazinalar jilosi" (1981) asariga bag'ishlangan. Maqolada olimning hayot yo'li, ilmiy-pedagogik faoliyati, tarjimonlik va adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlari yoritilgan. Asarning tarkibiy tuzilishi, unda Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiy ijodiga bag'ishlangan ocherklarning tahliliy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Professor Shomammedovning qiyosiy-tahliliy metodi, forsiy mumtoz adabiyotini o'zbek kitobxoniga yetkazishdagi o'rni va tarjimonlik mahorati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Shoislom Shomammedov, "Xazinalar jilosi", forsiy adabiyot, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, qiyosiy tahlil, tarjimonlik, o'zbek adabiyotshunosligi.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена научно-творческому наследию крупного представителя узбекского литературоведения XX–XXI веков, востоковеда и иранолога, профессора Шоислома Махмудовича Шомухаммедова, а также его труду "Блеск сокровищ" (1981). В статье освещаются жизненный путь учёного, его научно-педагогическая деятельность, вклад в переводоведение и литературоведение. Рассматриваются структура произведения и аналитические особенности очерков, посвящённых творчеству Омара Хайяма, Саади Ширази и Абдурахмана Джами. Особо подчёркиваются сравнительно-аналитический метод профессора Шомухаммедова, его роль в приобщении узбекского читателя к классической персидской литературе и мастерство переводчика.

Ключевые слова: Шоислом Шомухаммедов, “Блеск сокровищ”, персидская литература, Омар Хайям, Саади Ширази, Абдурахман Джами, сравнительный анализ, художественный перевод, узбекское литературоведение.

ABSTRACT

*This article is dedicated to the scientific and creative legacy of Shoislom Mahmudovich Shomammedov - a prominent figure in Uzbek literary studies of the 20th and 21st centuries, an orientalist, Iranologist, and professor - with particular focus on his work *Khazinalar Jilosi* (“The Brilliance of Treasures”, 1981). The article outlines the scholar’s biography, academic and pedagogical career, and his contributions to translation studies and literary criticism. The structural composition of the work is examined, along with the analytical characteristics of essays devoted to the poetry of Omar Khayyam, Saadi Shirazi, and Abdurakhman Jami. Special emphasis is placed on Professor Shomammedov’s comparative-analytical method, his role in introducing Uzbek readers to classical Persian literature, and his mastery as a translator.*

Keywords: Shoislom Shomammedov, “*Khazinalar Jilosi*”, Persian literature, Omar Khayyam, Saadi Shirazi, Abdurakhman Jami, comparative analysis, literary translation, Uzbek literary studies

KIRISH

Yigirmanchi va yigirma birinchi asr davomida yashab o‘tgan, salkam to‘qson yillik umrini o‘zbek adabiyotini boyitish va uni yanada mukammal darajagacha olib chiqish, tarixda o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan adiblarimizning merosini o‘zbek adabiyotiga, sodda va kamtarin o‘zbek xalqiga anglatish yo‘lida o‘z umrini baxshida etgan, sharqshunos, eronshunos, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Shomammedov Shoislom Mahmudovich haqida so‘z yuritmaslik, ularning xalqimiz yo‘lida qilgan xizmatlarini yod etmaslik buyuk adabiy moziyga ega bir millat uchun uyatli holat desak mubolag’a bo‘lmas. Dastavval, olim Shoislom Shomammedovning hayot yo‘li haqida ma‘lumotga ega bo‘lish o‘rinlidir. Adib 1921-yil 16-aprel sanasida Toshkentda tavallud topgan. O‘rta Osiyo universitetining Sharq fakultetini tugatganidan so‘ng, shu universitetda dastlabki ish faoliyatini o‘qituvchilikdan boshlab keyingi yillarda dotsent, sharq fakulteti dekani, universitetning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, Sharq fakulteti xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti kafedrasi mudiridan kafedra professori lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni o‘z ilmi va salohiyati bilan zabt etgan. Shomammedov olim, shoir va tarjimon sifatida mumtoz va hozirgi zamon Eron adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, fors-tojik adabiyoti klassik adiblarining asarlaridan tarjimalar va o‘z qalamiga mansub she‘rlar, hikoyalar to‘plamlaridan iborat 90 ga yaqin kitob

meros qoldirgan. Shuningdek, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining milliy iftixori yuksalib kelayotgan davrda Abulqosim Firdavsiy tomonidan yozilgan buyuk "Shohnoma" asarining 3 jildli yangi tarjimasi va nashri bevosita Shoislom Shomammedov rahbarligi va ishtirokida amalga oshirilgan. Xususan, adib tarjimon sifatida o'nlab sharq shoirlari asarlarining o'zbek xalqi ma'naviy mulkiga aylanishiga beqiyos hissa qo'shgan[1]¹. Mana shunday tarjima va tahlillarni o'z ichiga qamrab olgan haqiqiy xazina deb atalishga arziydigan "Xazinalar jilosi" nomi ostida kitob yozib qoldirgan.

Ushbu kitob 1981-yil nashr qilingan bo'lib, kitobga insoniyat badiiy fikr g'aznasini ajoyib asarlar bilan boyitgan, yanada go'zallashtirgan, necha asrlardan beri badiyot dengizida dur-u javohirdek porlab turgan shoirlar – Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi so'z ustalarining hayoti va ijodi haqida so'z yuritadi[2]². Asosiy umrini ilmga bag'ishlagan adibimiz ham tarjimonlik, ham badiiy adabiyotni bir vaqtning o'zida yuksaltirib borar ekan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy:

Emas oson bu maydon ichra turmak...

deb yozganidek, Sh. Shomammedov ham fan va adabiyotning murakkab ikki sohasida muvaffaqiyat bilan kurash olib borgan va g'alaba qozongan edi. Buni isboti esa "Xazinalar jilosi" da o'z aksini topgan. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarning qalamiga mansub ruboiy, ocherklarning tahlili va adiblarga oid ma'lumotlarni qamrab oladi, ikkinchi qismi esa Sh. Shomammedov tomonidan yozilgan maqolalar to'plamidir. Adib bu to'plamdagi maqola va publisistik lavhalarda nima haqida yozishidan qat'i nazar, har bir o'rinda aynan bir ikki xalqning emas, aksincha, Sharq diyoridagi ko'pgina xalqlarning iste'dodli farzandlari tomonidan yaratilgan beqiyos, ilg'or forsiy adabiyot, forsiy she'riyat unga ilhom bergan. Shu bilan bir qatorda, fikr va mulohazalari quyuqlashtirib, dunyoqarashini yanada boyitib, uslubiga ravshanlik, tiniqlik va o'zgacha nafosat bag'ishlagan[3]³.

Kitobning dastlabki qaydlaridanoq adib Umar Hayyom ijodini har tomonlama va atroflicha o'rganib tahlil qilgan. Har bir ocherk, har bir ruboiyning nega bu tarzda yozilgani, nega Umar Hayyom bu tarzda fikr yuritgani, nega aynan bir mavzuda ko'p ruboiylar bitganini olim Sh. Shomammedov shoirning shaxsiy qarashlari, hayotiy kechinmalari, diniy dunyoqarashlari, qiziqishlaridan kelib chiqib mukammal darajada tahlil qilib bergan. Olim kitobda har bir shoir hayoti, ijodiga obyektiv tarafdin nazar

¹ <http://uz.wikipedia.org>

² <https://akbt.urdu.uz>

³ Abduqodir Hayitmetov, filologiya fanlar doktori, professor; "Xazinalar jilosi" (Sh. Shomammedov) 1981-yil, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 9-bet

tashlab, chuqur mushohada yuritib, xolisona qarashlar bilan tasvirlab bergan. Bilamizki, adib tarjima qilgan Umar Hayyom ruboiylarining 87 tasi may mavzusini o‘z ichiga oladi[4]⁴. Sh. Shomammedov buning sababini shoir U. Hayyom ulug‘ ustoz Abu Ali ibn Sino izidan borib mayga o‘sha zamon tib fani nuqta‘i nazaridan qaragani va uni dori uchun oz-oz ichish kerakligi, uning qiziqqon kishilarga zarari, turli kasalliklarga foyda-zarari haqida so‘z yuritganini yozib o‘tadi, ammo, ba‘zi hollarda Umar Hayyom shoirona mubolag‘a bilan chegaradan chiqib ketganini ham ta‘kidlab o‘tishdan qochmaydi[5]⁵. Misol sifatida ustoz shoirning ushbu ruboiylarini keltiradi:

*Bir botmon bodani bir jomga solsam,
Ikki jom may bilan boy bo‘la qolsam.
Avval aql-u dinim qilib uch taloq,
So‘ngra tok qiziga uylanib olsam.*

Yana:

*Shunday ichayinki, o‘lsam ul sharob –
Hidi mazorimdan chiqsin burkirab,
Xumori o‘tarsa qabrim boshidan,
Isi elitsin-u aylasin xarob!*

Ammo, zinhor, olim shoirning ruboiy yoki ocherklarini salbiy tarzda tahlil qilib, tanqidiy munosabat bildirmagan, aksincha, shoirning may misolida qanday badiiy obrazlarni nazarda tutganini Sh. Shomammedov mukammal tarzda isbotlab, o‘sha davr qarashlarini oshkor etib, bayon qilgan. Misol uchun yuqoridagi ikkinchi ruboiyda “Shunday ichayinki” degan xitob va may obrazi orqali Hayyom go‘yo o‘sha davr kishilarning portretini chizish uchun foydalanganligini adib tushuntirib beradi[5]. Bir qarashda inson ilk marotabda bu ruboiyni o‘qiyotganda bu fikrni xayoliga keltirmaydi, ammo Sh. Shomammedov boshqa yozuvchilar ko‘ra olmagan jihatlarni ko‘rgan va ochib bergan. Bu albatta olimning qay darajada mushohadali, har bir sohadan xabari bor ekanligining yaqqol isbotidir. Shuningdek, professor Abduqodir Hayitmetov ta‘kidlab o‘tganidek, adibning tekshirish metodidagi eng kuchli tomonlaridan biri qiyosiy o‘rganish, chog‘ishtirma solishtirishdir. Masalan, ushbu kitobda u Hayyom va Hofiz ijodini bir-biriga taqqoslar ekan, progressiv fors-tojik poeziyasining g‘oyaviy-badiiy taraqqiyotidagi muhim izchillik va izdoshlik xususiyatlarini ochib bergan[3].

Keyingi band forsiygo‘y shoir va mutafakkir Sa‘diy Sheroziy ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, olim dastlabki betlarni shoirning biografiyasi haqidagi

⁴ Quronbekov Ahmadjon "Ruboiylar tarjimasi mashaqqatlari", jurnal "Sharq mash'ali" 1, 2021-yil, 18-bet

⁵ Shoislom Shomammedov “Xazinalar jilosi”, 1981-yil, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 80-bet

ma'lumotlardan boshlaydi, so'ngra, shaksiz, Sheroziy haqida asosiy ma'lumot beruvchi manba "Guliston" va "Bo'ston" asarlarining tahlili bilan davom ettiradi.

*G'ururlanma xayr aylasang bir nima
Bo'laklar gado, men ulug'man dema.
Qo'lingdan agar kelsa ishka mudom,
Ki mehnatchini el qilur ehtirom.*

Sheroziy tomonidan yozilgan mazkur bayt orqali asarda adib shoirning naqadar chuqur insoniy hissiyotlarga ega bo'lganligini ko'rsatib bergan. Ustoz Shomammedov Sa'diyning inson hayoti chumoli jonicha ham qadrlanmagan bir davrda yashaganini yozib o'tar ekan, shoirning naqadar xalqi, millati uchun jonkuyar shaxs bo'lganligini uning asarlari orqali isbotlab bergan[6]⁶.

Birinchi bo'limning so'nggi qismi fors shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Abdurahmon Jomiyga atalgan bo'lib, muallif tinglovchiga Jomiyning "Rashhi bol va sharhi hol" nomli o'z avtobiografik qasidasi orqali tanishtira boshlaydi. Keyingi bandlarda Jomiyning qanday siyosiy davrda yashab ijod etgani, Samarqand va Movarounnahrda vaziyatlar, xalqning ilm o'rganishga va izlanishga bo'lgan qiziqishlari xususida so'z boradi. Shoislom Shomammedov shoirning ijodi haqida shunday fikr bildiradi: "Jomiy ijodida biz xalqchil g'oyalar, inson tengligi, uning baxti uchun kurash, ezuvchilarni tartibga chaqirish, odil podshohlar obrazi, ruhoniylarning, mutasavvuf shayxlarning riyokorligiga qarshi kurash, mehnatni ulug'lash, mehnatkashlarga xayrixohlik, xalq ahvoliga achinish kabi va boshqa demokratik kayfiyatlar in'ikosini, lekin, shu bilan birga, shum zamonaning qora tamg'asini ham ko'ramiz"[7]⁷. Adib so'zlarining isboti sifatida Jomiyga tegishli quyidagi baytni keltiradi:

*Adolat birla mashhur bo'lgan kofir,
Dindor zolimdan yurt uchun yaxshidir.*

Bu kabi ma'lumotlar orqali shuni mushohada qilishimiz mumkinki, mazkur asar muallifi har bir shoirning hayoti-yu ijodini tahlil qilish jarayonida o'sha davrning qiyinchiliklarini ular bilan qayta yashab, his qilib ko'rgan va ichki kechinmalarini qog'ozga muhrlagan. Mumtoz sharq adabiyoti qay darajada murakkab bo'lishiga qaramay olim Sh. Shomammedov uni o'rganishda to'siqlarni yengib o'tib, muvaffaqiyatga erishdi. Beqiyos mumtoz sharq adabiyotining o'chmas adiblarning sehrli olami "Xazinalar jilosi" da o'z aksini topdi.

⁶ Shoislom Shomammedov "Xazinalar jilosi", 1981-yil, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 129-130-bet

⁷ Shoislom Shomammedov "Xazinalar jilosi", 1981-yil, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 199-bet

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Shoislom Shomammedov o‘zbek adabiyotshunosligida o‘ziga xos maktab yaratgan olim sifatida tarixda munosib o‘rin egallaydi. Uning "Xazinalar jilosi" asari nafaqat uchta buyuk sharq shoiri - Umar Hayyom, Sa‘diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiy hayoti hamda ijodini chuqur tahlil qiluvchi ilmiy manba, balki forsiy mumtoz adabiyotni o‘zbek xalqiga yaqinlashtirgan ko‘prik vazifasini o‘tagan nodir asardir. Umar Hayyomning may mavzusidagi ruboiylarini tor ma‘noda emas, balki o‘sha davrning falsafiy va tibbiy qarashlari nuqtai nazaridan talqin etgan. Sa‘diy Sheroziy tahlilida esa shoirning insonparvarlik g‘oyalarini og‘ir tarixiy sharoit bilan uyg‘unlashtira bilgan. Abdurahmon Jomiy ijodini yoritishda esa Shomammedov shoirning demokratik va ijtimoiy qarashlarini - adolat, mehnatkashlarni ulug‘lash, zulm va riyokorlikka qarshi kurash g‘oyalarini - asarlardan olingan aniq baytlar orqali ishonchli tarzda isbotlagan. Professor Shomammedovning ilmiy metodi qiyosiy tahlil va atroflicha mushohada asosiga qurilganligi bois uning asarlari bugungi adabiyotshunoslik uchun ham amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Sh. Shomammedov o‘zbek xalqining ma‘naviy xazinasini boyitishga umrini baxshida etgan ulug‘ zot sifatida avlodlar xotirasida abadiy yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduqodir Hayitmetov, filologiya fanlar doktori, professor; "Xazinalar jilosi" (Sh. Shomammedov) 1981-yil, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 9-bet.
2. Quronbekov Ahmadjon "Ruboiylar tarjimasi mashaqqatlari", jurnal "Sharq mash‘ali" 1, 2021-yil, 18-bet
3. Shoislom Shomammedov "Xazinalar jilosi", 1981-yil, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 80-bet
4. Shoislom Shomammedov "Xazinalar jilosi", 1981-yil, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 129-130-bet
5. Shoislom Shomammedov "Xazinalar jilosi", 1981-yil, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 199-bet
6. <http://uz.wikipedia.org>
7. <https://akbt.urdu.uz>